



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 14-avgust

VI-105-107-7-96-K/24

Kattaqo'rg'on tumani

Aholi daromadlarini oshirish, bandligini ta'minlash hamda ularni biznesga jalg qilish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarni bajarilishi to'g'risida tuman hokimining birinchi o'rinnbosari N.Jo'Imatovning hisoboti haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 25-iyuldag'i "Hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha joriy yilning ikkinchi uarim yilligida ustuvor vazifalarning bajarilishi ustidan ta'sirchan rarlament nazoratini amalga oshirish to'g'risida"gi KQ-785-sonli Qaroriga, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2024-yil 17-iyul kuni hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha birinchi yarim yillik tahlili va yil yakuniga qadar ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektorida bergen topshiriqlariga, xalq deputatlari Samarcand viloyati Kengashi kotibiyatining 2024-yil 5-avgustdag'i 15-15/274-sonli topshirig'i hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq VI chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 105-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Aholi daromadlarini oshirish, bandligini ta'minlash hamda ularni biznesga jalg qilish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarni bajarilishi to'g'risida tuman hokimining birinchi o'rinnbosari N.Jo'Imatovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman sektor rahbarlari, tuman hokimining o'rinnbosarlari, tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi (N.Jo'rayev), O'zbekistan mahallalar uyushmasi tuman bo'limi (I.Nurmuradov), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov), tuman hududidagi korxona va tashkilotlarga:

-aholi bandligini ta'minlash, kam ta'minlangan oilalarni kambag'allik darajasidan chiqarish;

- hududlarda aholi bilan uchrashuvlar o'tkazib, aholining o'zini-o'zi band qilish orqali doimiy daromad manbaiga ega bo'lishi, har bir oila o'zining iqtisodiy jihatdan tiklashi uchun keng imkoniyatlar haqida tushuntirish va amaliy tadbirlar olib boorish;

-aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini manzilli qo'llab-quvvatlash ishlarini kuchaytirish;

- mahalladagi mavjud muammolarni hal etilishida sektor rahbarlari va "mahalla yettiligi" hamkorligini tashkillashtirish;

- "mahalla yettiligi" tomonidan ko'rsatilgan ijtimoiy yordam va ajratilgan subsidiyalarning manzillilagini nazoratga olish;

- migratsiyadan qaytgan va bandligi ta'minlanmagan ishsiz fuqarolarni doimiy ish o'rnlari bilan ta'minlash;

- tijorat banklari va boshqa mutasaddi korxona tashkilotlar bilan birgalikda aholi xonardonida tomorqadan foydalanish, xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish orqali, aholini daromadli qilish choralarini ko'rish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (J.Safarov), "Kattaqo'rg'on kecha va bugun" gazetasi muharriri (O'.Usmonov) mazkur qaror ijrosi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (X.Tillayev) tuman hokimi o'rnbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH